


Namangan viloyati statistika boshqarmasi


2018 yil yanvar-noyabr oylarida QURILISH ISHLARI

Joriy yilning yanvar-noyabr oylarida viloyatda 1623,2 mlrd. so'mlik qurilish-montaj ishlari bajarilib, o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 104,1 foizni tashkil etdi.

Shuningdek, yirik pudrat tashkilotlari tomonidan qurilish ishlari hajmi 97,1 mlrd. so'mni yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan 157,9 foizni, kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan 741,3 mlrd. so'mlik qurilish-montaj ishlari bajarilib, o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 104,9 foizni va norasmiy sektorlar tomonidan esa 784,9 mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 99,1 foizni tashkil etdi.



2018 yil yanvar-noyabr oylarida shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlari hajmining o'sish sur'ati % da




Qurilish hajmining eng yuqori darajasi quyidagi hududlarda kuzatildi:

- Chortoq tumanida (115,2 mlrd.so'm yoki 153,5%) - Chortoq tumanida jismoniy shaxlar tomonidan yangi qurilgan, kadastr hujjatlari shakllantirilgan yakka tartibdagi turar joylar hamda maishiy hizmat ko'rsatish ob'ektlarini qurish ishlarini bajarilgan;
- Mingbuloq tumanida (58,9 mlrd.so'm yoki 135,3%)- Mingbuloq tumanida jismoniy shaxlar tomonidan yangi qurilgan turar joylar hamda kichik biznes sub'ektlari tomonidan bajarilgan ishlar hisobiga amalga oshirildi;
- Pop tumanida (134,0 mlrd.so'm yoki 130.0%)- Pop hududida jismoniy shaxlar tomonidan yangi qurilgan turar joylar hamda kichik biznes sub'ektlari tomonidan issiqxonalar qurish hisobiga amalga oshirildi;

Shu bilan birga, o'tgan yilning mos davriga nisbatan qurilish ishlari hajmining kamayishi Yangiq'o'rg'on tumanida (115,1 mlrd.so'm 72,4%)- qayd etildi.

2018 yilning yanvar-noyabr oylarida qurilish ishlari umumiy hajmida hududlarning ulushi (umumiy hajmga nisbatan %da)



Shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlarining katta qismi Namangan shahrida bajarilgan bo`lib, viloyatda bajarilgan jami qurilish ishlarining 20,5 % ini tashkil etdi, Namangan tumanida 10,9 % ni, Uychi tumanida bajarilgan qurilish ishlari esa 9,8 % ni, tashkil etdi.

Viloyatda amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmidagi ulushi bo`yicha past ko`rsatkichlar: Mingbuloq tumanida bu ko`rsatkich eng past 3,6 % ni tashkil etdi. Shuningdek, Uchqo'rg'on tumanida 4,8 % ni, Norin tumanida ushbu ko`rsatkich 5,5 % ni tashkil etganligini kuzatishimiz mumkin.


Qurilish ishlari mavsumining boshlanishi bilan hududlarda bajariladigan qurilish ishlarining hajmi ortib, ularning viloyatdagi ulushi ham o`zgarib boradi.




Mulkchilik shakllari

Mulkchilik shakllari bo'yicha qurilish ishlari

Mulkchilikning nodavlat shaklidagi qurilish tashkilotlari tomonidan 1524,2 mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, jami qurilish ishlari hajmining 93.9 foizini tashkil qildi va ushbu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan **2,0** foiz punktga kamaydi.




Yanvar-noyabr
2018



Yanvar-noyabr
2017



IQTISODIY FAOLIYAT TURLARI



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish loyihalarini ishlab chiqish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolarni qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.